Kataloglar uziga xos tuzilishga ega. Tarmok, muammo, mavzu, masala, familiyalar, sanalar buyicha birlashtirilgan xujjatlar xakidagi ma'lumotlar katalogdagi bulimlar, bulinmalar, mavzular va boshka bulaklarni tashkil kiladi.

3.Kataloglar tuzilishini xujjatlar xakidagi axborotlar turkumi tarxlari belgilaydi. Xujjatlar xakidagi axborotlarni turkumlash tarxi.ezma eki grafikali xujjatdir. Bu tarx ma'lum mantik bilan joylashtirilgan va xujjatlardan olingen axborotlarni shu bulaklar buyicha joylashtirishga mUljallangan katalogdan turkum bulaklari ruyxatidir. Mana shu tarx orkali xujjatlarni urganish, kartochkalarga baen kilish va kartochkalarni katalogda guruxlash, joylashtirish amalga oshiriladi. Katalogning turkum tarxi xujjatlarni topish, baen kilish ishlaridan oldin tuziladn. Tarx bulaklari ma'lumotnomaga tuzuvchilar, mutaxassislar ishtirokida aniklanadi va belgilanadi. Turkum tarxi kancha tUla, mukammal, chukur ishlangan bulsa, xujjatlar mazmunini shuncha anik ochib berish imkonini tughiladi.

Xujjatlar xakidagi axborotlar katalogda kartochkalarga ezilib, joylashtiriladi. Kartochkalarda bayon kilingan axborotlar ayrim xujjat, bitta yigma jild yoki bir-biriga uxshash bir gurux jildlarga tegishli ma'lumotlarni Uz 'ichiga oladi. SHu bilan katalog kartochkalaridagi ma'lumotlar yigma jildlar ruyxatidagi ma'lumotlardan fark kiladi.Ma'lumki, ruyxatda bitta yigma jildga tegishli ma'lumot beriladi. Katalog yigma jildning ichidagi ayrim xujjatlar tugrisida xam ma'lumot beradi. Katalogning ruyxatdan ustun tomoni xam shundadir.

Katalogning asosiy bulagi rubrika — sarlavxa kismidir. Bu kismda anik masalaning nomi, shaxsning familiyasi, sana tugrisida xujjatdagi ma'lumotlar buladi. Katalog kartochkasida shu xujjatning manzili xam ezilgan buladi. Tadkikotchini shu masala eki familiya kiziktirsa, xujjat manzilini ezib olib, arxivdan tezda topib foydalanishi va tadkik kilishi mumkin buladi.

4.Kataloglarning turlari

Arxiv kataloglari tuzilish koidalari kura ikkiga bUlinadi: mantikiy tuzilishdagi kataloglar va alfavit tuzilishidagi kataloglar. Birinchi *tur* kataloglarda arxiv xujjatlari xakidagi ma'lumotlar mantikiy uzaro boglik xolda buladi. Ikkinci tur kataloglarda esa xujjatlar xakidagi ma'lumotlar uzaro boglanmagan xolda, ya ni alfavit buyicha joylashgan buladi. Mantikiy tuzilishdagi kataloglar tarkibiga sistematik, xronologik, mavzu asoslarida tuzilgan kataloglar kiradi.

Alfavit tuzilishdagi kataloglar tarkibiga — ismlar, geografik nomlar va boshka kataloglar kiradi.

Sistematik katalog arxiv kataloglari turlaridan biridir. Bunda xujjatlar xakidagi ma'lumotaar bilim soxalari eki jamiyat amaliy faoliyati soxalari buyicha joylashtiriladi. Keyin mantikiy boglangan xolda ketma ket joylashtiriladi. Sistematik katalog umumiylar va ayrim tushunchalarning uzaro boglikligi va munosabati asosida tuziladi. Masalan,«Din» umumiylar tushunchasiga kuyidagi ayrim tushunchalar kiradi: «Islom», «Xristianlik», «Induizm»,«Iudaizm» (yaxudiylik), «Budda». Uz navtabida «Islom» xam umumiylar tushuncha bo'lib, ayrim tushunchalargabulinadi. Bunday bulinish «oliydan oddiyga», «umumiyyadan ayrimga» tamoyili buyicha davom etadi. Barcha turkum tarxlari ichida sistematik kataloglar tarxlari eng murakkabidir.

Xozir butun dune kutubxona va arxivlarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida, «Universal unlik turkumi (klassifikatsiyasi)» sistematik kataloglar uchun keng foydalaniladi. Bu turkum asosida davlat arxivlari sistematik kataloglar uchun turkum tarxi ishlab chikilgan.

«Unlik turkumi (klassifikatsiyasi)»ning moxiyati shundaki» bitga umumiylar tushunchaga buysungan, boglangan bir gurux predmetlar bir deb Kabul kilingan. Umumiylar tushunchalar ayrim tushunchalarga bulingan. Bu tizimga binoan arxivdagi barcha ma'lumotlar 10 klassga (1 dan 9 gacha, 0 - umumiylar) bUlingan. Ular uz navbat-ida yuzdan, mingdan bir kism va boshka mayda bulaklarga bulinadi.

«Universal unlik turkumi (klassifikatsiyasi)»ning asosiy bulimlari kuyidagilar:

0. Umumiylar bulim.

1. Falsafa. 2.Din.3Ijtimoiy fanlar 4Filologiya. Tilshunoslik.

5Matematika. Tabiiy fanlar.6.Amaliy bilimlar. Tibbieg. Texnika.

7. San'at. Fotografiya. Tomoshalar. 8Adabiyot.Adabiyotshunoslik.

9.Ulkashunoslik. Geografiya. Biografiyalar. Tarix.

«Universal unlik turkumi (kpassifikatsiyasi)» kutubxona kitoblari uchun ishlatalgan bulsada, undan ish yuritish va arxiv material-larini turkumlash uchun xam foydalansa buladi.

Mavzu bUyicha kataloglar. Davlat arxivlarida sistematik kataloglar 60yillardan keng tarkala boshlagan. Unga kadar arxivlarda asosan mavzu buyicha kataloglar tuzilgan. Xozir xam maxalliy davlat arxivlarida - shaxar, viloyat arxivlarida sistematik kataloglar tuzish imkonи bulmaganligi sababli mavzu buyicha kataloglar asosiy ma`lumotnomalardan biri xisoblanadi. Bunday kataloglarda mavzu yana kichik mavzuchalarga bulinadi. Ular uz navbatida yana mayda bulaklarga bulinadi. Masalan, Turkiston generalgubernatorligida milliy ozodlik xarakati mavzusi buyicha katalogda kuyidagi mavzular bulishi mumkin: 1876 yilgi Pulatxon kuzgoloni, 1898 yilgi Andijon kuzgoloni, 1916 yilgi xalk kuzgoloni va xokazo. Bularning xar biri yana mayda bulaklarga bulinishi mumkin.

Xronologik katalog. Bunday katalog turkumi tarxi davrlar, asrlar, yillar kabi bulaklarga bulinadi. Masalan, MDAda saklanaetgan vakfnomalar uchun xronologik katalog tuzilsa,, u asrlar buyicha bulishi mumkin: XIII asr, XIV asr, XV asr, XVI asr, XVII asr, XVIII asr, XIX asr. Xar bir asr katalogning bulimi xisoblanadi. Bulimlar bulinmalarga ellik, utgiz, yigirma, un yilliklarga bulinadi. Masalan, XVIII asr: 17011710, 17111720, 17211730, 17311740 va xokazo.

Alfavit buyicha tuziladigan kataloglar

Ismlar katalogi. Ismlar katalogida bulimlar familiyalardan iboratdir. Bulimlar ichida bulinmalar u eki bu shaxs faoliyatining u eki bu kirralarini yoritadi. Masalan, Fayzulla Xujaev: Davlat faoliyati; partiyaviy faoliyati; ilmiy faoliyati; kitoblar; broshyuralar; maxolalar; ma`ruzalar; xatlar; u xakidagi makolalar.

Bulimlarda familiyalar alfavit buyicha joylashtiriladi. Bulimlar va bulinmaning bulakchalari alfavitlar buyicha emas, sistematik mantikiy ravishda birin ketin joylashtiriladi.

Geografik katalogning turkum tarxi alfavit tartibida joylashgan geografik va topografik nomlardan: viloyatlar, shaxarlar, tumanlar, kishloklar, daryolar, kullar, suv omborlari va boshkalardan iborat. Viloyatlar, shaxarlar nomlari bulimlar xisoblanadi va alfavit buyicha joylashtiriladi. Masalan, Toshkent shaxri kuyidagi bulimlarga bulinada: tarixi, axolisining soni va tarkibi, oliv ukuv yurtlari, texnikumlar, makgablar, sanoat korxonalari va xokazo,

Xozir barcha yirik davlat arxivlarida sistematik, ismlar, geografik kataloglar mavjud. Bu ma`lumotnomalar tadkikotchiga u shplaetgan mavzu buyicha kerakli arxiv xujjatlarini tezda topish va foydalanish imkonini beradi.

Kataloglashtirish uchun xujjatlarni tanlab olish va axborotni bayon kilish usuli

Arxivlardagi kataloglar tizimida ularning jamgarmalaridagi barcha ma`lumotlar uz aksini topishi kerak.Jamgarmalarni kataloglashtirishda birinchi navbatda muxim va kup foydalaniladigan jamgarmalar tanlab olinadi. Masalan, davlat xokimiyati va boshkarish idoralari (UzSSR XKS, Oliy Sovet Prezidiumi) jamgarmalari, iktisodiet, madaniyat soxasidagi vdora va tashkilotlar xujjatlari muxim jamgarmalar katoriga kiradi. Davlat arxivlarida kataloglashtiriladigan jamgarmalar ruyxati tuziladi va rejalashtiriladi.

Kataloglashtirish uchun tanlab olingan jamgarma materiallari urganilib, kerakli yigma jiddlar tanlab olinadi; Dastlab ruyxatlardan idoraning, tashkilotning asosiy faoliyatini erituvchi bulimlari tanlab olinadi. Tashkilotning erdamchi, xujalik soxalari bulimlari buyicha jiddlar olinmaydi.

Jamgarma yigma jiddlar tanlab olingandan keyin bu jiddlar sinchiklab ukib, urganib chikiladi. Xujjatlardagi eng muxim axborotlar, faktlar, vokealar, xodisalar umumlashtirilib, kartochkada baen kilinadi. Bunda xujjatlardagi ma`lumotlarning axamiyatiga karab xar xil usullar kullaniladi. Varakaga bir xujjat, bir yigma jild eki bir gurux yigma jiddlar baen kilinishi mumkin. Masalan, Turkiston ASSR XKS karorlarining xar biri aloxida baen kilinadi. Muxim arxiv jamgarmalari xujjatlarining kup kismi kimmatlari, axamiyatli xujjatlar xisoblanadi. Bunday xujjatlarning xar biri aloxida baen kilinadi. Mayda idoralar jamgarmalarini kataloglashtirish xujjatlar buyicha emas, balki yigma jiddlar guruxlapggirilgan jiddlar buyicha baen kilinadi.

5.SHunday kilib, kataloglar arxivning ilmiy ma`lumotnomma apparati tarkibiga kiruvchi muxim ma`lumotnomadir. Ular tarixchi tadkikotchilar ishlaetgan mavzu buyicha arxivdan kerakli xujjatlarni kiska fursatda topishga erdamlashadi.

Arxiv xujjatlarining sharxlari

Arxiv sharxlari bu ayrim xujjatlar majmuasi tarkibi va mazmuni tugrisidagi tartibli axborotlarni uz ichiga olgan ma`lumotnomalardir. SHarxlar arxiv xujjatlaridan foydalanishni kengaytirish maksadida bu xujjatlar xakida manfaatdor tashkilotlarni, ilmiy jamoatchilikni xabardor kilish maksadida tuziladi.

SHarxlar odatda ikki xil buladi: arxiv jamgarmalarining sharxlari va mavzular buyicha sharxdar.

Jamgarmalar sharxlari - bu sharx bitta jamgarmaning xujjatlari tarkibi va mazmuni, ulardagi muxim mavzu, masalalar tugrisida ketmaket va atroflicha axborot bergan arxiv ma`lumotnomasidir.

Mavzu buyicha sharxlari - bitta mavzuga oid bir necha jamgarmalarda saklanaetgan xujjatlar tarkibi va mazmuni tugrisida axborot beruvchi arxiv ma`lumotnomalaridir.

SHarxlar muxim ilmiy, amaliy axamiyatga ega bulgan, dolzarbli bilan boshkalardan ajralib turadigan arxiv xujjatlariga tuziladi. U eki bu arxiv jamgarmasiga sharx tuzishda jamgarmani tashkil kilgan idoraning, tashkilotning axamiyati, davlat idoralari tizimida to`tgan mavkei, uning xujjatlarining dolzarbli xisobga olinadi. SHarxlarni yirik va xujjatlari kam urganilgan jamgarmalarga nisbatan tuzish maksadga muvofikdir.

Bitta mavzuga oid bitta arxivda saklanaetgan bir necha jamgarmalargagina emas, respublikaning barcha davlat arxivlarida saklanaetgan xujjatlarga sharx tuzilsa, ayni muddao buladi.

SHarxlarni tuzish xam xar xil buladi. SHarxlar jamgarmani tashkil kilgan tashkilot tuzilishi, bulimlari bUyicha, tarmoklar bUyicha, mavzu buyicha va boshka turkum tarxlar buyicha bulishy mumkin. Masalan, tarmoklar buyicha guruxlash tarxi sharx uchun tanlangan bulsa, u kuyidagicha buladi: 1) sanoat; 2) kishloq xujaligi; 3) madaniyat; 4) san`at; 5) soglikni saklash; 6) savdo; 7) shaxar eki tuman xUjaliga va xokazo. Xar bir bulim ichida sharx materialyaari masalalar buyicha joylashtiriladi.

SHarxlarda xujjatlarni bayon kilish usuli katalog, ruyxat va boshka ma`lumotnomalarnikiga uxshash buladi. Xujjatlarning baeni dastlab kartochkalarga ezilib, jamarma eki bir necha jamgarmalar organilib bulingandan keyin kartochkalar sharx tarxi buyicha guruxlashtiriladi, taxrir kilinib, sharx matni eziladi.

Xujjatlar xakidagi ma`lumotlar ezilaetganda kuyidagi koidalarga rioya kilish zarur: xujjatlarning turlari ko`rsatilishi, ularning mazmuni olib berilishi, yillari, asl nusxa eki kuchirma ekanligi ko`rsatilishi kerak. Muxim masalalar, vokealar, xodisalar, babn kilingan shu dalillarga doir xujjatlar, yigma jildlar soni ko`rsatib utilsa, urinli buladi. SHuningdek, u eki bu masala bUyicha xujjatlar tula eki kam saklanganligini xam, aytib Utish mumkin.

SHarx tuzishdagi yana bir muxim koida shuki, baen etilaetgan xujjatlarning manzili, arxiv shifri ko`rsatib boriladi. Jamarma sharxi bulsa, sharx matnida ruyxat va yigma jild tartib rakami kavs ichida ezib kuyiladi. Mavzu buyicha sharxda bir necha jamgarmalardagi xujjatlar baen etilaetgan bulsa, jamarma, ruyxat, yigma jild tartib rakamlari ko`rsatiladi. Bu ma`lumotlar bulmasa, sharx kadrsizlanadi. Tadkikotchi sharxda baen etilgan xujjatlarni topa olmaydi. Xujjatlar shifrlari anik, xatosiz bulishi kerak.

Davlat arxivlari buyicha ko`rsatkichlar

Davlat arxivlarining ilmiy axborot faoliyatida ko`rsatkichlar (putevoditellar) muxim axamiyat kasb etadi. Ko`rsatkichlar - arxiv jamgarmalari tugrisida muntazam tartibda axborot beruvchi arxiv ma`lumotnomasidir. Tadkikotchilar ko`rsatkichga arxivda u eki bu jamgarmaning bor yukligani aniklash uchun murojaat kilishadi.

Ko`rsatkichlar asosan ikki xil buladi. Birinchisida arxivdagি muxim jamgarmalarning barchasi ma`lum tartibda joylashtirilib, xar biriga ta`rif beriladi. Ikkinchisi Davlat arxivining jamgarmalari buyicha kiska ma`lumotnoma deb ataladi va bunda xam jamgarmalar ma`lum

tartibda joylashtirilib, muxim jamgarmalarga kiska ma`lumot eziladi. Boshka jamgarmalarga kiska ma`lumot xam ezilmay, ularning fakat ruyxati beriladi. Birinchi tur ko`rsatkichlar respublikamiz markaziy davlat arxivlarida, ikkinchi turi viloyat arxivlarva tuziladi.

Ko`rsatkichlar odatda ishlab chikarish tarmok tarxi buyicha tuziladi. Bu jamgarmalar ta`riflari davlat faoliyati, xalk xujaligi, fan, madaniyat tarmoklari buyicha guruxlapggiriladi. Masalan, UzSSR MDAning sovet davri bulimi jamgarmalari buyicha ko`rsatkich tarxi kuyidagi bulimlardan iborat:

1. Turkiston ulkasida Muvakkat xukumat tashkilotlari jamgarmalari.
2. Oliy davlat xokimiyyati va davlat boshkaruv idoralari jamgarmalari.
3. Adliya va sud idoralari jamgarmalari.
4. Xalk xUjaligi tashkilotlari, korxonalar jamgarmalari.
5. Madaniyat va turmush soxasidagi tashkilotlarjamgarmalari va xokazo.

SHuningdek, UzSSR Markaziy davlat tarix arxivi ko`rsatkichi va viloyat. davlat arxivlari bUyicha kiskacha ma`lumotnomalar xam tarmoklar tarxi asosida tuzilgan.

Jamgarmalarga ta`rif berish, xujjatlarni baen kilish usuli jamgarmalar materiallari tarkibi va mazmuniga, ularning axamiyatiga boglikdir. Muxim jamgarmalarning xar biriga aloxida ta`rif beriladi. Turdosh jamgarmalarning xar bir guruxiga bitta ta`rif eziladi.

Arxiv jamgarmasining ta`rifi kuyidagi kismlardan iborat:

- 1) arxiv jamgarmasining nomi; . 2) jamgarma xakida ma`lumotlar;
- 3) jamgarma va jamgarmani tashkil kilgan idora tugrisida kiskacha tarixiy ma`lumot;
- 4) arxiv jamgarmasi xujjatlarining annotatsiya si;
- 5) bibliografik ma`lumot.

Ko`rsatkichda jamgarmaning tula va kiska nomi beriladi. Masalan, UzSSR Xalk Komissarlari Soveti (UzSSR XKS). Jamgarma xakida ma`lumotlar kismidan jamgarma tartib rakami, uning xajmi, xujjatlarning boshlangan va tugagan sanasi, jamgarmaga oid ma`lumotnomalar xakida axborot ruyxatlar (opis', sharx, kataloglar va boshkalar) ko`rsatiladi.

Jamgarmani tashkil kilgan tashkilot va jamgarma va jamgarma xakida kiska tarixiy ma`lumotda Usha tashkilot tarixi, asosiy faoliyati va jamgarma ning tarixi baen etiladi.

Jamgarma tarxining muxim kismi jamgarma xujjatlarining muxtasar baenidir. Bunda jamgarma xujjatlari juda kiska shaklda, shu bilan birga jamgarma mazmunining etarli darajada tUla aks ettirilishi talab kilingan.

Jamgarma ta`rifining sUnggi elemengi bibliografik ma`lumot xisoblanadi. Bunda jamgarma va jamgarmani tashkil kilgan tashkilot tUgrisidagi adabietlar, jamgarma xujjatlari e`lon kilingan tUplamlar ko`rsatiladi.

Ko`rsatkichda arxivda saklanaetgan barcha jamgarmalar xakida ma`lumot berilishi kerak. Lekin xamma jamgarmalarga ta`rif ezilishi shart emas. Ko`rsatkich oxirida ta`rifi tuzilmagan jamgarmalar ruyxati beriladi. Bu ruyxatda jamgarmaning nomi bilan birga tartib rakami, yigma jildlar soni, jamgarma xujjatlari boshlangan va tugagan yillar ko`rsatiladi.

Arxiv jamgarmalari bUyicha kiskacha ma`lumotnomada xam ko`rsatkich tuzish koidalari asosida tayerlanadi. Fakat bu ma`lumotnomada jamgarmalar xakidagi ma`lumotlar tula bulmaydi. Masalan, jamgarma xujjatlarining mazmuni ochib berilmaydi. Ayrim muxim jamgarmalargagina tula ta`rif beriladi. kiska ma`lumotnomaning maksadi asosan arxiv jamgarmalari tarkibini ko`rsatishdir.

Ko`rsatkich va sharxlarda xam boshka ma`lumotnomalardagidek ilmiy ma`lumotnomada apparati buladi. Ular asosan kirish, kiskartiriltan so`zlar ruyxati, ismlar, geografik predmet va boshka ko`rsatkichlar, izoxlar, atamalar lugati, bibliografik ma`lumotdan iboratdir.

Arxiv ma`lumotnomalarini nashrga tayerlash

Arxiv ma`lumotnomalarini z`lon kilishdan asosiy maksad O`zbekiston Respublikasi DAJ xujjatlari tugrisida keng ilmiy axborotni tashkil kilishdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun

arxivlar ko'rsatkichlar, ruyxatlar, sharxlar, kataloglar va boshka ma'lumotnomalarni nashr etadi. Ma'lumotnomalarni e'lon kilish tashkilotlar, ilmiy jamoatchilik dikkatini DAJ xujjatlariga jalgiladi va ulardan foydalanishning kengayishiga yordamlashadi.

YUkorida kUrib O'tganimizdek, arxivda ma'lumotnomalar kup va xilmaxildir. Ularning xammasini nashr kilish imkoniy yuk. SHuning uchun ularning eng muximlari chop etiladi. Birinchi navbatda arxiv xujjatlari xakida umumiylar ma'lumotnomalar ko'rsatkich va arxiv jamgarmalari bUyicha kiskacha ma'lumotnomalar e'lon kilinadi. Keyin imkoniyat bUlsa, muxim va keng foydalilaniladigan jamgarmalar rUyxatlari nashr kilinishi, sharxlar, kataloglar chikarilishi maksadga muvofik bULadi.

E'lon kilinadigan arxiv ma'lumotnomasining tuzilishi, tarxi ilmiy asoslangan, babn kilish usullarining bir xil bulishi talab etiladi.

Nashr etilaetgan ma'lumotlarga kushimcha talablar kUyiladi. Ular suratlar bilan bezatilgan, ilovalar bilan ta'minlangan va taxrir kilingan bUlishi kerak.

Tayanch so'z va atamalar

- 1.Katalog.
- 2.So'zboshi.
- 3.Sistematik kataloglar.
- 4.Mantikiy kataloglar.
- 5.Indekslashtirish.
- 6.YULko'rsatkich.

Nazorat savollari

- 1.Katalogning vazifasi nimadan iborat?
- 2.So'zboshi kanday vazifani bajaradi?
- 3.Ruyxat nima maksadda tuzilidi?
- 4.Arxiv shifri nima?

Mavzu №11: O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi xujjatlarini saklanishining ta`minlanishi.

Reja:

1. Kirish.
- 2.Saklash uchun kulay sharoitlar, elektr jixozlar. YOnginga karshi jixozlar.
- 3..Namlikni ta`minlash, sanitariya gigiena rejimi.
- 4.Xujjatlarni foydalanishga berish tartibi.
5. Xulosa.

1.

1.O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi xujjatlarining saklanishini ta`minlash uchun davlat arxivlarida kUyidagi bir-biri bilan boglik ishlar kompleksi Utkazilishi lozim:

- xujjatlarni saklanishi uchun kulay sharoitlarni tashkil kilish ;
- xujjatlarni xonalarga joylashtirish, topografiyalashtirish;
- yigmajildlarni arxivdan berilishi tartibiga rioya etish;
- yigmajildlar mavjudligini va xolatini tekshirish;
- aloxida kimmatta ega bUlgan xujjatlarni sugurta va foydalanish fondlarini tashkil etish;
- xujjatlarning fiziko-kimyoviy saklanishini ta`minlash, yigmajildlarni labaratoriyaga tayyorlash .

Xujjatlarni saklovini ta`minlash majburiyatini direktor buyrugi bilan bosh saklovchi zimmasiga yuklatiladi.

Saklash xonasi akt bUyicha kabul kilib olinadi, akt ikki nusxada tayyorlanadi, topshiruvchi va kabul kiluvchi tomonidan imzolanadi, bir nusxasi fond saklovchisida ikkinchi nusxasi saklashni ta`minlash bUlimi mudiri yoki arxiv direktorida koladi.

Saklash xonasini kabul kilishda fondlar saklovchisi xisob xujjatlari yordamida xujjatlarni sonini zarur bUlganda xolatini tekshiradi.

Fond saklovchisi unga topshirilgan fondlarni saklanishi uchun tUla javobgardir.

Xujjatlarni saklash uchun kulay kUyidagicha ta`minlanadi:

- arxiv binolarini kurish, rekonstruktsiya va remont kilish bilan;
- saklash xonalarini Ut Uchirish vositalari;yongindan ximoya va yonginga karshi signalizatsiya bilan jixozlash;
- saklashning kulay xarorat va namlik rejimini xosil kiluvchi texnik vositalarni kUllash, sanitariya-gigiena tadbirlarini Utkazish;
- xujjatlarni saklashning maxsus vositalarini kUllash;

2. Davlat arxivlari uchun binolar maxsus kurilgan yoki moslashtirilgan bUlishi mumkin.

Arxiv muassasalari kUyidagi muassasalardan uzokda joylashtirilishi kerak:

- xavoni chang va aggressiv gazlar (xlor, azon) bilan ifloslaydigan sanoat korxonalaridan tibbiy normalarda belgilangan masofalarda;
- yongin xavfi bUlgan, kurilish normalari va koidalari talablariga javob bermaydigan ob`ekt va kurilishlardan,

Arxivlar kuriladigan va faoliyat ko`rsatadigan xududlarda zararli aralashmalar mikdori (Urtacha sutkalik) kuyidagi normalardan oshmasligi kerak (mgm3):

Oltengugurt gazi - 0,05;

Azot oksidi - 0,085

Xlor gazi - 0,03

Sillikat changi - 0,05.

Xududni arxiv binosi kurilishi uchun yarokli ekanligini aniklashda maxalliy sanitariya epidomologiya stantsiyalarining xulosasi xam xisobga olinadi.

Arxivlar uchun yangi binolar kurish va eskilarini rekonstruktsiya kilishda kUyidagi maxsus jixozlangan xonalarning mavjud bUlishi oldindan kUzda tutilgan bUlishi kerak:

- xujjatlarni kabul kilish;
- xujjatlarni saklash;

- ilmiy axborot apparatini va xisob xujjatlarini joylashtirish;
- xujjatlarni mikrofil'mlashtirish va foto nusxa olish;
- restavratsiya, dezinfektsiya.
- kUpaytirish texnikasini joylashtirish;
- ishchi kabinetlar;
- ukuv zali;
- kUrgazma zali;
- yordamchi xonalar (garderob, kabulxona va boshkalar).

Xujjatlarning ugirlanishdan saklash uchun ertUla xonalari, va past kavat derazalariga metall panjaralar Urnatiladi.

Arxivlarning asosiy binolarida elektroprovodlarning yopik montaji kUllaniladi. Saklash xonalarda gaz kuvurlari orkali montaj kilishga xam ruxsat beriladi.

Asosiy arxiv xonalardagi yoritgichlar, elektroshitlar va taksimlash vositalari yopik foydalaniladigan bUlishi kerak. Saklash xonalari umumiy va kavatlar uchun Uchirish rubil'niklari bilan jixozlanishi lozim. Taksimlash shitlari, predoxranitellar, Uchirish moslamalari fakatgina saklash xonalarining tashkarisida Urnatiladi. YOrigtgichlar xujjatlar solingen karobkalardan 50 sm uzoklikda bUlishi kerak elektr rozetkalar kopkoklik bUlishi yoki yopik kutilarda Urnatilgan bUlishi kerak. CHangyutgich va kUchma yoritgichlar shnurlari rezina shlanglar orkali Utkazilgan bUlishi, yoritgichlar shisha kalpok va setka bilan ximoyalangan bUlishi kerak.

Stellajlar tepasida yoritish poldan 1 metr balandlikda -20-30lk, xujjatlarni kUrib chikiladigan ish joyida -100lk; loyixa xujjatlarini kUrib chikishda -300lk bUlishi kerak.

Saklash xonalari derazalari shimol tomonga karatilgan bUlishi lozim, tabiiy yoritishga xujjatlarni kuyosh nurini tUgridan-tUgri tushishdan saklagan xoldagina yUl kUyilishi mumkin.

Xujjatlarni yoruglik ta`siridan saklash kUyidagicha amalga oshiriladi:

- xujjatlarni shkaflarda, yopik tipdagisi stellajlarda, shuningdek kutilarda, papka va mukovalarda saklash;
- derazalarda yoruglik tarkatuvchi oynalardan, yoruglik Utkazmaydigan pardalardan foydalanish.

Xujjatlarni tabiy yoruglikning emiruvchi ta`siridan asrash chora tadbirdari xujjatlar bilan ishlanadigan barcha xonalarda kUzda tutilgan bUlishi kerak.

Arxiv binolari yongin xavfiga kUra «V» kategoriya mansub saklash xonalari olovga bardoshliligi ikkinchi darajadan past bUlmagan binolarda joylashtiriladi.

Bino yonginga karshi suv ta`minoti bilan jixozlanadi.

Arxivlarning asosiy yonginga karshi jixozlariga eng yangi konstruktsiyalardagi uglekislotali Ut Uchirish moslamalari bo'lib, xar bir 50kv, erda bitta, xar ikki xonadan bittasiga Urnatilishi kerak.

YOnginga karshi ximoya maksadida barcha elektr jixozlar er Utkazgichlar bilan ta`minlanadi.

Saklash xonasi va ishchi kabinetlar kUrikchi va yonginga karshi signalizatsiya bilan ta`minlanishi lozim.

Saklash xonasi va xujjatlar bilan ishslash xonalari shiftlarga, zinapoyalarga, koridorlarga xujjatlarni evakuatsiya kilish uchun kulay bUlgan chikish yUllariga ega bUlishlari lozim.

Xujjatlarni evakuatsiya kilish yUllariga bUlgan talablar:

- evakuatsiya yUllarini turli xil buyumlar va uskunalar bilan tUsib kUyish takiklanadi;
- evakuatsiya chikishlarining barcha eshiklari binodan chikish yUnalishida erkin ochilishi kerak;
- ertUlalar aloxida chikish joylariga ega bUlishlari kerak;

evakuatsiya yUllaridagi koridorlarda «CHikish», «Ochik eshik» kabi yozuvlar bUlishi kerak.

Saklash xonalarda chikish, elektr isitish asboblaridan foydalanish, begona buyumlarni (portfellar, sumka, ozik-ovkat maxsulotlari va x.k) saklash ta`kiklanadi.

3. Kogoz asosidagi xujjatlarni uzok muddat saklanishi uchun saklash xonalarda saklashning optimal xarorat rejimi Urnatilgan. Xarorat 17-19S, nisbiy namlik 50-55%.

Xujjatlarni saklash rejimi xavoning iklimiy parametrlarini (xarorat va nisbiy namlik) muntazam Ulchab borish yUli bilan nazorat kilib turiladi:

- konditsionerlik xonalarida xtaftada bir martadan kam bUlmashligi kerak;
- xavo va suv bilan isitiladigan xonalarda xtaftasiga ikki marta;

Nazorat-Ulchov priborlarining ko'rsatkichlari maxsus jurnallarda kayd kilib boriladi. Jurnalda shuningdek priborlar ko'rsatkichini tUgriligini tekshirish va xarorat namlik rejimini me'yorga keltirish yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar xam Uz ifodasini topadi.

Nazorat-Ulchov priborlari stellajlarga asosiy kirish joylarida istish va ventilatsiya sistemalaridan uzokrok Urnatiladi. Priborlar barcha saklash xonalari, xona sistemasida xar bir xonaga, kUp yarusli sistemada xar bir yarusga bittadan kUyiladi.

Saklash xonalari xashorotlar, is, kemiruvchilar, chang tUplanishi paydo bUlmaydigan darajada, namunali tartib va tozalikda bUlishi kerak.

Xujjatlarni changdan saklash uchun:

- saklash xonasini maksimal germetik imkoniyatlarini ta`minlash va ventilyatsion sistemani changga karshi fil'tlar bilan jixozlash;

vakti-vakti bilan xujjatlar solingan kutilar, stellajlarni changini artish; sanitariya kunlarini Utkazish.

Saklash xonalari arxivlar uchun belgilangan tartibdaUrnatilgan metall stellajlar bilan jixozlanadi:

- Asosiy Utish yUlaklarining kengligi(stellajlar kator orasi 120sm)
- polkalar Urtasidagi masofa 40 sm.dan oz bUlmagan, Uzgaruvchi.
- devor bilan unga parallel bUlgan stellajlar orasidagi masofa - 75 sm.

Arxiv xujjatlari umumiyligi va maxsus saklanadigan xujjatlarga bUlinadi.

Maxsus saklanadigan xujjatlar uchun ajratilgan joy va maydon arxiv tomonidan arxivning xajmi va tUldirib berish istikbollaridan kelib chikib belgilanadi.

Fondlarning arxivda joylashtirish tartibi, ularni joylashtirish sxemasi bilan aniklanadi. Plan (sxema) fond komplekslarini xar bir stellajda nomeri ko'rsatilgan xolda taksimlanishi kUzda tutiladi.

Yigmajildlar stellajlarda vertikal yoki gorizontal xolatda kutilarda yoki papkalarda joylashtiriladi.

Barcha arxiv binolari (bino, korpus, etaj, yarus, xona) shuningdek stellaj, shkaf va polkalar nomerlanadi. Xar bir xonada stellajlar va shkaflar chikish eshididan chapdan Ungga karab nomerlanadi. Stellajlardagi polkalar shkaflar bUyicha chapdan Unga, polkalar tepadan pastga nomerlanadi.

Saklash joyini mustaxkamlash va xujjatlarni izlash uchun arxivlarda fondlar bUyicha va stellajlar bUyicha topografik ko'rsatkichlar tuziladi.

Topografik ko'rsatkichlar kartochkalarda zarur bUlgan mikdorda bUladi.

Fondlar bUyicha topografik ko'rsatkich kartochkalari xar bir fondga aloxida tuziladi. Fondlar bUyicha topografik ko'rsatkich kartochkalari fond nomerlari tartibida joylashtiriladi.

Stellajlar bUyicha topografik ko'rsatkich kartochkalari xar bir stellajga aloxida tuziladi va stellajlar nomeri tartibida joylashtiriladi.

Saklash xonalari ish vaktida kalit bilan berkitilgan bUlishi kerak. Xonalarning kaliti ish vaktida fond saklovchisida bUladi; pechat va plomba arxiv direktori tomonidan sokchilik organlari bilan kelishilgan xolda belgilangan tartibda saklanadi. Ish vakti tugagach saklash xonalaring eshiklari kulflanadi, muxrlanadi va plombalanadi. Muxrlashdan oldin saklash xonasini uchun mas`ul shaxs xonaning xolatini tekshirdi. Arxiv xodimlarining saklash xonasiga kirishi tartibi direktortomidan belgilanadi. Begona kishi fakatgina direktor ruxsati bilan fond saklovchisi xamroxligida kiritilishi mumkin.

4.Saklash xonalardan xujjatlar kUyidagi xolatlarda beriladi:

- foydalanish uchun (tadkikotchilar ukuv zalida, arxiv xodimlari ishchi kabinetlarida, muassasa va tashkilotlar vaktingchalik foydalanish uchun);

- xujjatlar ustida arxiv ishlarini olib borish uchun (Ilmiy ma`lumot aparatini takomillashtirish, xujjatlar kiymatini aniklash va ishchi kabinetlarda arxiv xodimlari tomonidan) ;
- sugurta fondini tashkil etish yuzasidan tashkil etilgan ishlar, nusxa kUchirish va xujjatlarni saklanishini ta`minlash uchun maxsus ishlov berish.

Eski va xarflari tez buziladigan, shuningdek aloxida kimmatta ega bUlgan xujjatlar yigmajildlari foydalanishga berilmaydi, ularning nusxalari beriladi. Ayrim Usha zaruriy xolatlarda bunday xujjatlarning asl nusxalari direktorning yozma ruxsatnomasiga asosan beriladi.

Xujjatlarni berish va ularni kayta kabul kilib olish fond saklovchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Yigmajildlar (asli yoki nusxasi) direktorning yozma ruxsati bilan aloxida kimmattli xujjatlarni berilganda, arxivdan tashkarida vaktingchalik foydalanish uchun berilganda, kUrgazmaga kUyilganda, restavratsiya uchun berilganda, nusxa kUchirilganda tashkariga chikarilishi mumkin.

Yigmajildlar kUyidagi muddatlardan oshmagan xolda berilishi mumkin:

- Un kun- sUrovlarni bajarayotgan arxiv xodimlari uchun;
- bir oy- ukuv zalida ishlayotgan tadkikotchilar, ilmiy ish bilan shugullanayotgan arxiv xodimlari uchun;
- uch oy- xujjatlarni vaktingchalik foydalanish uchun sUravotgan muassasa va tashkilotlar uchun.

Xujjatlarni arxiv ishlarini bajarish uchun, sugurta nusxasi kUchirish va boshka maxsus ishlarni bajarish uchun berish muddati arxiv va labaratoriya ish rejali uchun beriladi.

Foydalanish muddatini uzaytirishga ayrim xollarda arxiv raxbariyatining yozma ruxsatnomasi asosida yUl kUyiladi.

Xujjatlarni berilishi kUyidagi xujjatlar bilan rasmiylashtiriladi:

- buyurtma (talabnoma) - ukuv zalida ishlayotgan tadkikotchilar va arxiv xodimlari uchun;
- yigmajildlarni vaktingchalik foydalanishga topshirish aktlari;
- labaratoriya ishlarini Utkazish uchun buyurtma;
- arxiv ishlarini bajarish uchun berilishi aktlri.

Yigmajildlarni berilishi kUyidagi kitoblarga kayd etiladi:

- yigmajildlarni ishchi kabinetlarga berish kitobi;
- Ukuv zliga berish kitobi;
- labaratoriya berish kitobi;
- vaktingchalik foydalanishga berish kitobi.

Kitoblar aloxida yuritiladi.

Tadkikotchilarning bajarilgan buyurtmalari (talabnoma) xujjatlar bilan ukuv zliga jUnatiladi va tadgigotching shaxsiy delosida saklanadi.

Boshka barcha bajarilgan buyurtmalar fond saklovchisida maxsus papkada saklash muddati tugaguncha saklanadi.

Xar bir berilgan yigmajild Urniga karta kUyiladi, kartada fond nomeri, rUyxati, soni, kachon va kimga berilganligi, bergen xodimning imzosi va kaytarilganligi xakidagi belgi bUladi.

Xujjatlar yigmajildini vaktingcha foydalanishga berilganda ikki nusxada akt tuziladi. Bir nusxasi arxivda koladi, bir nusxasi foydalanuvchiga beriladi.

Akt arxiv raxbariyati, saklash bULimi mudiri, xujjatlarni kabul kilib olgan muassasa tomonidan imzolanadi. Imzolar muxr bilan mustaxkamlanadi.

5. Xujjatlar yigmajildlarini restavrattsiyaga, mukovalashga, nusxa kUchirishga jUnatish buyurtma bilan rasmiylashtiriladi. Buyurtma davlat arxivida zarur bUlgan mikdorda tuziladi. Buyurtma labaratoriya buyurtmalar kitobida kaUd etilgach, unga kUyilgan nomer kolgan barcha nusxalarga kUyiladi, bittasi ishlarning bajarilishini nazorat kilib borish uchun arxivga kaytariladi, kolganlari labaratoriyada olib kolinadi.

Yigmajildlarni berishdan oldin shifr, mukovadagi saxifa, berishda va kabul kilishda varaklarning nomerlanishi va yigmajildning xoliga e`tibor beriladi.

Xujjatlarni xar kanday masofalarga transport vositalarida tashishda extiyot choralarini kllash kerak. Xujjatlarni yosingarchilikdan, yoruglikdan va boshka salbiy ta`sirlardan ximoya kilish kerak. SHaxar ichida usti yopik avtomashinalarda, shaxarlararo tashishda konteynerlarda tashiladi.

Tayanch so'z va atamalar

- 1.Restavratsiya.
- 2.Konservatsiya.
- 3.Dezinfektsiya.
- 4.Stellaj.
- 5.Saklash xonasi.
- 6.Xarorat-namlik rejimi.
- 7.Ukuv zali.
- 8.Nazorat-Ulchov priborlari.

Nazorat savollari

- 1.Arxiv xujjatlarini saklash deganda nimani tushunasiz?
- 2.Arxiv joylashgan xududda zaxarli gazlar mikdori kanchadan oshmasligi kerak?
- 3.Xujjatlarni saklash uchun kulay sharoit deganda nimani tushunasiz?
- 4.Arxiv binosida kanday xonalar mavjud bUlishi kerak?
- 5.Xarorat-namlik rejimi kanday bUlishi kerak?
- 6.Stellajlar kanday joylashtirilishi lozim?

Mavzu №13-14: O'zbekiston respublikasi DAF hujjatlaridan foydalanishni tashkil kilish.

Reja:

1. Kirish.
2. O'zbekiston Respublikasi M.A.F. xujjatlaridan foydalanishni tashkil kilish va tartibi.
3. Muassasalarga axborot berish va ularning so'rovlарini bajarish.
4. Arxivlarning madaniy-ma`rifiy va targibot-tashvikot ishlari.
5. Xulosa.

1,

1.O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi xujjatlaridan siyosiy, xo'jalik, ilmiy, ijtimoiy-madaniy maksadlarda, shuningdek fukarolarning xukuk va konuniy manfaatlarini ta`minlash uchun ishlatalidi.

Davlat arxivlari kizikkan davlat va jamoat tashkilotlarini dolzarb siyo-siy va iktisodiy muammolar, fan va madaniyat masalalari bo'yicha xujjatlardan xabardor kiladilar, ularning so'rovlарini bajaradilar, belgilangan tartibda xujjatlarning ko'chirma nusxalarini beradilar, fukarolarga esa – xujjatlar bo'yicha ijtimoiy-xukukiy xarakterdagi malumotnomalar beradi, xujjatlar yoki ularning nusxalarini arxiv O'quv zallarida o'rganish uchun takdim etadilar, xujjatlar ko'rgazmasini, jamoatchilik bilan uchrashuvlar, ekskursiyalar uyuştiradilar, xujjatlar va ularning mazmuni xakida axborot berishda matbuot, televidenie, kino, radiodan foydalanishadi.

2.Xujjatlardan foydalanish samaradorligini O'rganish maksadida davlat arxivlari xujjatli axborotga nisbatan jamoatchilik extiyojlarini o'rganib chikadilar va uning iste`molchilarini bilan ishchan alokalar o'rnatadilar.

O'zbekiston Respublikasi milliy arxiv fondining foydalanishi davlat yoki ayrim shaxslar manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lgan xujjatlardan boshka barcha xujjatlari foydalanishga takdim etiladi.

Xujjatlarning arxivlarda ularning nusxalari mavjud bo'lgan xollarda foydalanish uchun berilmaydi.

Davlat arxivlari fukarolarning so'rovlari bo'yicha xujjatlarni aniklashni amalgalashimaydilar (ijtimoiy-xukukiy xarakterdagi so'rovlari bundan mustasno). Fukarolarga ularni kiziktirayotgan xujjatlari mavjud bo'lgan arxiv fondlarining joyi xakidagi ma'lumotlar xabar kilinadi va ulardan foydalanish tartibi tushuntiriladi.

Xujjatlarni arxiv xodimlari tomonidan ishlatalishi arxiv raxbaryatining nazorati va ruxsati bilan amalgalashimaydi.

Davlat arxivi xujjatlaridan foydalanish uchun nusxa ko'chirish tashkilot so'rovi bo'yicha va uning xisobiga amalgalashimaydi.

O'zbekiston Respublikasi MAF xujjatlaridan foydalanuvchi muassasa, tashkilot va korxona raxbarlari, shuningdek fukarolar xujjatlardan va ulardagi axborotlardan foydalanishning to'griligi uchun javobgardirlar.

CHet el tashkilotlari va fukarolariga davlat arxiv xujjatlaridan foydalanish uchun ruxsat, arxiv ma'lumotnomalari, nusxalar, ko'chirmalar Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Bosh arxiv boshkarmasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Xujjatlardan foydalanishning asosiy shakllari kuyidagilardir: muassasalarni xabardor kilish va ularning so'rovlari bajarish; arxivning ma`naviy-ma'rifiy va targibot-tashvikot ishlari; ijtimoiy-xukukiy xarakterdagi so'rovlarni bajarish; xujjatlarni arxiv O'quv zalida O'rganish uchun takdim etish.

3.Muassasalarning davlat arxivi xujjatlari xakidaxabardor kilish kuyidagi axborot xujjatlarini tuzish va jo'natish orkali amalgalashimaydi: axborot xati, xujjatlarning tematik ruyxati, tematik sharx, arxiv ma'lumotnomasi, shuningdek arxiv nusxasi, arxiv ko'chirmasi berish va yigmajildlarni vaktinchalik foydalanishga berish yo'li bilan, muassasani xabardor kilish arxiv tashabbusi bilan xam, va muassasa so'rovi bilan xam o'tkaziladi.

Tashabbuskor axborotlash tematikasini aniklashda arxivda tegishli xujjatlar mavjud bo'lgan mavzuning siyosiy, iktisodiy, ilmiy va ijtimoiy-madaniy dolzarbligiga tayanish lozim.

Axborot xati - bu arxiv tashabbusi bilan yoki muassasa so'roviga asosan tuzilgan va arxivda ma'lum bir masala bo'yicha xujjatlarning mavjudligi xakida ma'lumot beruvchi rasmiy xatdir. Arxiv tashabbusi bilan tuzilgan axborot xati fondlarning nomi va axborotga taalukli mavzuning kiskacha tavsifidan iborat bo'ladi, Mazmuni xujjatlar guruxiga yoki ayrim xujjatlarning kiska annotatsiya shaklida bayon kilinadi. Axborot xatida xujjatlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilishi xam mumkin. Muassasa so'roviga ko'ra tuzilgan axborot xatida barcha savollarga javob berilgan bo'lishi kerak. Axborot xati arxiv raxbaryati tomonidan belgilanadi.

Xujjatlarning tematik ruyxati-sanasi va imzosi ma'lumotlar ko'rsatilgan ma'lum bir mavzu bo'yicha yigmajild yoki xujjatlar sarlavxalarining ruyxatidir. Zarur bo'lganda annotatsiya, xakikiyligi tasdiqi, xujjat tili xakida ma'lumot xam berilishi mumkin.

Xujjatlarning tematik ruyxati arxiv tashabbusi bilan xam muassasa so'rovi bilan xam tuzilishi mumkin.

Yigmajildlar yoki xujjatlarning sarlavxalari ruyxatda kaysi fondga tegishli ekanligidan kat'iy nazar xronologiya, predmet belgisi, axamiyatiga va boshkalarga karab joylashtiriladi. Ruyxat tuzuvchi arxiv raxbaryati tomonidan imzolanadi.

Arxiv ma'lumotnomasi-xujjatlarning izlov ma'lumotnomalari ko'rsatilgan, so'rov predmetiga taalukli bo'lgan ma'lumotga ega bo'lgan arxiv xujjatlari xakida xabar beruvchi yuridik kuchga ega bo'lgan rasmiy ma'lumotnomasi.

Arxiv ma'lumotnomasi muassasa, tashkilot, korxonalarining Uz faoliyatlarini bo'yicha masalalar yuzasidan kilgan so'rovlari asosida beriladi; fukarolarga ularning xukuk va konuniy manfaatlarini ximoya kilish bilan boglik masalalar bo'yicha arizalar asosida beriladi.

Arxiv ma`lumotnomasi arxivda saklanayotgan va arizadagi masalaga taalukli bo`lgan xujjatlar bo`yicha tuziladi. So`ralgan mavzu bo`yicha xujjatlar bo`lmasa arxiv ma`lumotnomasi arxivdagi matbuot materiallari asosida beriladi.

Arxiv ma`lumotnomasi belgilangan tartibda davlat arxivining «Arxiv ma`lumotnomasi» nomli blankasiga tuziladi. Arxiv ma`lumotnomasini tuzish vaktida arxiv xodimlari koidalarga amal kilgan xolda sUralgan masalalar bo`yicha yigmajild va xujjatlarni aniklab, ma`lumotnomada bayon kiladilar.

Arxiv ma`lumotnomasi so`ralgan masala bo`yicha xujjatlarda mavjud bo`lgan ma`lumotni anik va ravshan bayon etib berilishi lozim. So`rovga taalukli bo`lman ma`lumotlar ma`lumotnomaga kiritilmaydi. Ma`lumotda xujjatning nomi, sanasi beriladi, xujjatlarda mavjud bo`lgan ma`lumotlar bayon kilinadi. Bunda bayonnomma xujjatlarning emas balki vokealarning xronologik izchilligida beriladi.

Ma`lumotnomma matnida tashkilotning nomi birinchi eslatilganda to`likligicha kiskartirish yo`1 ko`yiladi. Ma`lumotnomma matnidan keyin uni tuzish uchun asos bo`lgan izlash ma`lumotida ko`rsatiladi fond, ruyxat, yigmajild, xujjat varaglarining nomerlari;

Arxiv ma`lumotnomasi arxiv raxbariyati va ma`lumotnomma yuritgan bo`lim boshligi tomonidan imzolanadi va arxivning gerbli muxri bilan tasdiklanadi. Arxiv ma`lumotnomasining nusxasi(shtampsiz va muxrsiz) yigmajilda koladi.

Arxiv ma`lumotnomasiga unda keltirilgan ma`lumotni tasdiklash uchun arxiv xujjatlarining nusxasi ilova kilinishi mumkin.

Arxivda so`ralayotgan masalalar bo`yicha xujjatlar va matbuot materillari bUlmasa javob «Arxiv ma`lumotnomasi» yozuvi bo`lman arxiv blankasiga tuziladi. Javobda xujjatning yUkligi sababli, ma`lumotnomma kaerga murojat kilish lozimligi ko`rsatiladi.

Davlat arxivlari Uzlarida saklanayotgan xujjatlar asosida muassasa, tashkilot, korxonalarga arxiv nusxalari va xujjatlardan ko`chirmalar beradilar; fukarolarga esa ularning xukuk va erkinliklarini taminlaydigan ijtimoiy-xukukiy xarakterdagi ma`lumotlarga ega bo`lgan xujjatlardan nusxa va ko`chirma berishadi.

Arxiv nusxasi xujjatning butun matnini mashina yozuvi, elektrograf yoki boshka usul bilan so`zma-so`z takror ishlab chikarishdir. Arxiv ko`chirmasi xUjjatni ma`lum bir masala, fakt, shaxsga taalukli bo`lgan kismini so`zma-so`z kayta ishlanishidir.

Arxiv nusxasi va ko`chirmasini berish tartibi arxiv ma`lumotnomasini berish tartibi bilan bir xil.

Mashina yozuvidagi arxiv nusxalari (ko`chirmalari) «Arxiv nusxasi», «Arxiv ko`chirmasi» deb nomi ko`rsatilgan blankalarda tuziladi. Xujjatlarning nomi, uning nomeri va sanasi tUlikligicha takrorlanadi. Arxiv nusxasining mazmuni so`rovdagি masalaga tUlik mos kelishi lozim.

Yigmajildlar vaktinchalik foydalanishga fakatgina muassasa, tashkilot, korxonalarning ularning faoliyatidan kelib chikkan xolda bergen so`rovlar bo`yicha beriladi. SHaxsiy xarakterdagi fond xujjatlari ularni arxivga topshirgan kishilarga vaktinchalik foydalanishga beriladi.

4. Vistavkalar tashkil kilish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish uchun ma`lumotlar to`plash, jamoatchilik bilan uchrashuvlar Utkazish, ekskursiya, lektsiyalar davlat arxivlarining madaniy-ma`rifiy va targibot-tashvikot ishining shakllari xisoblanadi. Bu ishlar ko`prok mamlakat xayotidagi, yirik davlat va jamoat arboblari, xalk xo`jaligi, ilm-fan, madaniyat arboblari xayotidagi muxim vokealar, yubileyalar munosabati bilan o`tkaziladi.

Mavzuni tanlash ijtimoiy-siyosiy vazifalar va ularni echish uchun xujjatlarning mavjudligi bilan asoslanadi. Shakl tanlashda mavjud xujjatlarning tarkibi, mazmuni va xarakteri xisobga olinadi. Bu ishlarni amlga oshirish uchun, muxim sanalar kalendar, vokealar silsilasi va xakozolar tuzish tavsiya etiladi.

Xujjatlar ko`rgazmasi - bu ommaviy namoyish kilish uchun ajratib olingan va badiiy bezak berilgan xujjatlar majmuasidir.

Ko'rgazma arxiv tomonidan mustakil ravishda xam, boshka muassasalar bilan xamkorlikda xam Utkazilishi mumkin.

Arxivlar boshka muassasalar uyushtirgan ko'rgazmalarga xam xujjatlarini kUyishlari mumkin. Ko'rgazmalar statsionar va xarakatdagi ko'rgazma bo'lishi mumkin. Xujjatlar ko'rgazmaga odatda ko'chirma nusxa ko'rinishida ko'yiladi. Statsionar ko'rgazmalar istisno tarikasida kiska muddat asl nusxadagi xujjatlar namoyish kilinishi mumkin. Xarkatdagi ko'rgazmalarda fakatgina fotonusxalar namoyish kilinadi.

Ko'rgazmada asl nusxadagi xujjatlar oynavndi kulflanadigan va muxrlanadigan vitrinalarda isitish sistemalaridan uzokda, kuyosh nuridan ximoya kiladigan maxsus pardalar bilan ta`minlangan xolda joylashtiriladi. Ko'rgazma binosida xujjatlarni yaxshi saklanishini ta`minlaydigan xarorat-namlik rejimiga kattik rioya etiladi.

Ko'rgazma o'tkazuvchi tashkilot xujjatlarni saklanishi uchun javobgarlikni Uz bo'yniga oladi. Ko'rgazma xujjatlarni takdim etgan arxiv xujjatlarni saklanishni ta`minlash talabiga rioya kilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ko'rgazma tayyorlashda mavzu bo'yicha adabiyotlar Urganiladi, tematik reja tuziladi, xujjatlarni ko'rgazma uchun aniklanadi va ajratiladi, ularni annatatsiya kilinadi, materiallarni ko'rsatishga tayyorlanadi, ko'rgazma montaji va bezash kabi ishlar amalga oshiriladi.

Ko'rgazmaning tematik rejasi ko'rgazma tuzilishini belgilaydi, uning bUlimlarini mazmuni va tarkibini ochib beradi.

Tematik plan asosida xujjatlarni aniklash va ajratish amalga oshiriladi. Bunda xujjatlarni siyosiy axamiyati va ilmiy kimmatidan kelib chikishi lozim.

Ko'rgazma uchun ajratib olingan barcha xujjatlar annotatsiya kilinadi. Boshka ishlarni xujjatlarni zarur bUlsa tarjimalari kUyiladi.

Ko'rgazmaga ommaviy tashrif buyurishni tashkil kilish uchun arxiv ma`muriyatm jamoatchilikni radio, matbuot, televidenie, afishalar, taklifnomalar orkali xabardor kiladi.

Arxiv ko'rgazma bUylab ekskursiya uyushtirish mumkin. SHu maksadda kengaytirilgan ekskursiya rejasi ishlab chikiladi, u arxiv raxbari tomonidan tasdiklanadi va uni Utkazish uchun eng tajribali xodim ajratiladi.

1.Davlat arxivlari muassasa so'rovlarini va fukarolarning arizalarini bajaradilar va ularga fukarolarning xukuk va erkinliklarini ta`minlash uchun zarur buladigan ijtimoiy –xukuiy xarakteridagi arxiv ma`lumotnomasi beradilar.

2.Fukarolarga ularni arizasiga binoan: mexnat stoji tugrisida,ish xaki tugrisida,xarbiy xizmatda bo'lganligi,partizanlik xarakatida katnashganlik,saylanadigan lavozimlarga saylanganlik ,biror bir jamoasi tashkilotiga a`zolik, mukofotlar, davolanishda bo'lganlik, ma`lumoti, fukarolik xolati, mexnati ,mulk xukuklari tugrisida ,davolash va jamoatchilik faoliyatini va xukuiy manfaatlarini ta`minlash bilan boglik bo'lgan boshka masalalar yuzasidan ma`lumotnomasi olishlari mumkin.

Arxiv ma`lumotnomasi fukarolarning uzi xakida xam ,va ularning karamogida yoki xomiyligida bo'lgan shaxslarga, shuningdek olamdan o'tgan turmush urtoga yoki yakin karindoshi xakida xam beriladi.

Jinoiy javobgarlikga tortilganlik , sudlanganlik fukarolik xukukidan maxrum kilinganlik va uni tiklanganligi nomexnat mulkiy xukuklar , nomexnat faoliyati tugrisidagi arxiv ma`lumotnomalari fukarolarning kullariga berilmaydi,balki suralgan tashkilotga junatiladi .

Agar ma`lumotnomani tuzish vaktida aniklangan ma`lumot , ma`lumotnomani arizachi kuliga bermasigni takazo kiladigan bulsa, bu xolda xam ma`lumotnomasi suralgan tashkilotga junatiladi, arizachiga esa ma`lumotnomani kaerga junatilganligi xabar kilinadi .

Arxiv ma`lumotnomalari berish tugrisida fukarolarning arizalari va muassasalar so'rovlarini arxiv raxbarlarini tomonidan kurib chikiladi va arizalarni bajarish xakida karor kabul kilinadi .

Arxivning profiliga tugri kelmaydigan so'rov va arizalar tegishli muassasaga junatiladi,arizachi bu xakda ogoxlantiriladi.

SHaxsiy yigmajildlardagi kadirlar xisobi bo'yicha varaklar, anketalar aftobiografiyalar arxiv ma'lumotnomalari berishga asos bulolmaydi.

Zarur bo'lib kolganda ulardagi ma'lumot xakida arizachiga yozma xabar beriladi .

Fukaroning turli tashkilotlarda ishlaganligi yoki turli o'quv yurtlarida taxsil organigi xakidagi ma'lumotlar bitta ma'lumotnomaga kiritiladi. Mexnat staji tugrisidagi ma'lumotnomada xujjatlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar oid bo'lgan davrgagina doir ma'lumotlar beriladi .

Bunda arizachilar ishlagan lavozimning anik nomi va ishlagan yili ko'rsatiladi .

Ish xaki summasi tugrisidagi ma'lumotnomaga ish xakiga alokador bo'lмаган ish vaktidan ortikcha ishlaganligi uchun xak, urindoshlik uchun xak tugrisidagi ma'lumotlar kiritilmaydi .

Bunday ma'lumotlar yuk bulsa ma'lumotnomaga ish xaki tugrisida ma'lumotlar kiritiladi ,chunki ular xakida xujjatlarda bayon kilingan .

Agar arxiv ma'lumotnomasiga kiritilayotgan ma'lumotlar varakning ikkala tomoniga xam sigmaydigan bulsa , ma'lumotnomasi ikkinchi vakeyingi varaklarda davom ettiriladi va xar bir varok muxrlanadi.

Arxiv ma'lumotnomasi va xujjatlarning asl nusxasi ariza bergen kishilarga pasport yoki shaxsni tasdiklovchi boshka xujjat asosida tilxat bilan beriladi.

Arxiv ma'lumotnomasi yoki shaxsiy xujjatlarni xakikiy nusxasini olayotgan kishi ma'lumotnomasi nusxasiga yoki shaxsiy xujjat nusxasining orka tomoniga imzo chekadi va kim tomonidan berilganligini yozadi .Mexnat daftarchasini olishda shaxs arxivga bergen arizasining orka tomoniga imzo chekadi .

Agar arizachi arxiv ma'lumotnomasini yoki shaxsiy xujjatning asl nusxasini olish uchun kela olmasa ,u xolda ma'lumotnomasi yoki xujjat pochta orkali junatiladi .Arxiv ma'lumotnomasi oddiy xat bilan xujjatlar kiymati xat bilan junatiladi.

3.Xujjatlardan siyosiy ,xo'jalik ,ilmiy,ijtimoiy-madaniy maksadlarida foydalanishi uchun davlat arxivlarida o'quv zallari faoliyat ko'rsatadi.

O'quv zalining ish tartibi tadkikotchilarning kizikishlarni xisobga olgan xolda belgilanadi.

Tadkikotchilar O'zbekiston respublikasi fukarolari xujjatlar bilan ishlashga tadkikotlar tematikasi bo'yicha vakolatni tashkilotning xati orkali yul kuyiladi.Xatda tadkikotchining, ismi, familiyasi, lavozimi, unvoni, mavzusi, tadkikotning xronologik ramkasi va maksadi ko'rsatilishi lozim.

Xat maxsus blankaga yoziladi va tashkilot raxbarini (ilmiy kotib)tomonidan imzolanadi.

Oliy o'quv yurtlarining talabalariga xujjatlar bilan ishlashga arxiv xujjatlari bilan ishlash zaruriyati izoxlab berilgan ,rektor prorektor yoki fakul'tet dekani imzolangan xat asosida ruxsat beriladi.

Ayrim fukarolar xujjatlar bilan ishlashga istisno tarikasida shaxsiy arizasiga asosan kuyiladi.

CHet el fukarolari bo'lgan tadkikotchilari O'zbekiston davlat arxivlar xujjatlari bilan ishlashga O'zbekiston respublikasi Bosh arxiv boshkarmasi belgilagan tartibda kuyiladi.

Tadkikotchilarga xujjatlardan foydalanish uchun ruxsat davlat arxivi raxbarlarini tomonidan tadkikot mavzusi xajmi bilan belgilanadigan lekin bir yildan kup bo'lмаган muddatga beriladi.O'quv zalidagi mashgulot muddatini uzaytirishda yoki mavzuni uzgartirishda tadkikotchi yangi xat olib kelishi kerak.

Arxiv xujjatlari ustida ishlashga kuyilgan tadkikotchi anketa tuldirish, mavjud koidalar bilan tanishtirilishi va pasport ko'rsatishi kerak.

O'quv zalida xar bir tadkikotchiga «shaxsiy delo» yuritiladi va unga kuydagilar kiritiladi :

- tadkikotchining anketasi
- yigmajild berishga buyurtma
- xujjatlardan nusxa kuchirishga buyurma:

Shaxsiy delolar o'quv zalida saklanadi va tadkikot tugagandan bir yildan sung arxivning arxiviga topshiriladi.

Davlat arxivining o'quv zaliga tadkikotchilar ning tashrif buyurishini kayd etish uchun maxsus jurnal yuritiladi.

O'quv zaliga tadkikotchilar fakatgina mavzuga taalukli bo'lgan yigma jiddlarga beriladi.Xujjatlarni va arxiv ma'lumotnomalarini olish uchun tadkikotchilar yigma jild berilishiha buyurtma tuldiradilar.Yigma jiddlar va arxiv spravochnigi tadkikotchilarga tilxat asosida beriladi.

Tadkikotchilar ularning saklanishi uchun javob beradilar .Bir vaktning uzida tadkikotchi nomidagi yigma jiddlar 20 dan , ruyxatlar 5 ta dan ortik bulmasligi kerak .

Xar kuni ish tugagandan keyin tadkikotchilar xujatlarni o'quv zali xodimlariga topshiradilar .Tadkikotchilardan foydalanilgan xujjatlarni olgan o'quv zali xodimi buyurtmaga imzo chekadi.Agar kaytarilgan xujjatlarda kamchilik yoki zararlanganlik kuzatilsa bu xakda akt tuziladi agar zarar tadkikotchi tomonidan yul kuyilgan bulsa u arxiv raxbarini tomonidan belgilangan muddatga o'quv zalida ishslash xukukidan maxrum kilinadi. Ugirlik yoki kastdan zarar etkazish, shuningdek xujyat matniga uzgartirish kiritilgan xollarda aybdor konunda belgilangan tartibda javobgarlikga tortiladi.

